

SO‘Z QUDRATI YOHUD ERKIN VOHIDOVNING BADIY MAHORATI

Mo‘minov Abbosbek Soyibjon o‘g‘li
 O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi
mominovabbosbek998@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning badiy mahorati, shoir ijodidagi nekbin tuyg‘ular, mumtoz adabiyot an’analari, shoir ijodining xalq dilidan chuqur o‘rin egallashidagi asosiy sabablar xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: “Yoshlik devoni”, tazod, she’riyat, xalqonalik

ANNOTATION

The article discusses the artistic skills of the Hero of Uzbekistan, People’s Poet of Uzbekistan Erkin Vahidov, optimistic feelings in the poet’s work, traditions of classical literature, the main reasons why the poet’s work occupies a deep place in the national language.

Key words: "Department of Youth", tazad, poetry, folklore

So‘z ham tirik mavjudot. Uning chaqaloqlik, bolalik, o‘smirlik hamda balog‘at chog‘lari bo‘ladi. So‘zda mansub xalqning ruhi, fe’l-atvori aks etadi. O‘z so‘zingni qo‘yib, o‘zganing zaboniga suyanish — o‘z jigaringni uyingdan haydab, begonani etaklab yurishdek gap

E. Vohidov

Har qanday yozuvchining badiiy adabiyotdagi o‘rnii uning yaratgan umrboqiy asarları salmog‘i bilan belgilanadi. U o‘z asarlarida tarix va zamonni, oddiy xalq hayotini qay darajada haqqoniy, yorqin, yuksak mahorat bilan tasvirlay olsa, mana shu uning mehnati, iqtidoridan dalolat beradi. Yozuvchining o‘z asarida yaratgan obrazida, shoirning esa lirk qahramonida xalq, davr qahramoni, haqiqiy hayotdagi odamlar timsoli yaqqol aks etadi. Ana shu obrazlar naqadar asl, millat ruhiyatiga yaqin, ibratli bo‘lsa, kitobxon uchun uning ahamiyati, qadri shu qadar ulkan bo‘ladi, bir umr sevimli asari, obraziga aylanadi.

Nasrning imkoniyatlari cheksiz. Yozuvchi o‘z dilidan o‘tkazgan his-tuyg‘ulari, kechinmalari, dard-u alam yohud quvonchlari- barcha-barchasini nasriy asar qatiga singdira oladi. Buning uchun qancha kerak bo‘lsa shuncha so‘z imkoniyatidan foydalanadi. She’riyatda esa bu biroz mushkulroq. Chunki yozuvchi butun bir roman

orqali tasvir etgan ruhiy holat, hissiyotlarni bitta she'rga sig'dirish amrimahol. Faqatgina haqiqiy iste'dod sohibi bo'lgan shoirgina bu chegaralarni to's-to's qilib yubora oladi. Erkin Vohidov ana shunday iste'dod egasi bo'lgan chinakam shoir edi.

Har qanday ijodkor bir vaqtning o'zida turli janrlarda qalam tebratishi mumkin. Masalan, G'afur G'ulom, Cho'lpon, Fitrat, Hamid Olimjon, Oybek bir vaqtning o'zida ham nosir, ham shoir edi. Bunday ijodkorkorlar qatorini uzoq davom ettirish mumkin. Ammo har birining bu janrlar ichida asosiy bir janri bo'ladi. Erkin Vohidov ham she'riyat bilan bir qatorda publisistika, dramaturgiyada samarali mehnat qildi. Lekin, eng avvalo, shoir sifatida nom qozondi, qadr topdi, ustoz shoir bo'lib, adabiyotimizda abadiy iz qoldirdi.

Shoirning o'zi she'riyat haqida shunday fikr bildirgan edi: "Inson yuragi ham bir olam. Uning ham bahor va kuzlari, tong va tunlari, orom va zilzilalari bor. She'riyat yurak sadosi bo'lganidan ana shu murakkab tuyg'ular olamini ifoda qiladi. Shuning uchun ham bir she'rni o'qib quvonsak, ko'ksimiz surur va iftixor tuyg'ulariga to'lsa, ikkinchi bir she'rni o'qib xayolga tushamiz, inson dardlariga oshno bo'lamiz. Shoirlilik o'sha tuyg'ularning tabiiyligi va haqiqiyligiga she'rxonni ishontira olishdir".¹

Darhaqiqat, shoir ta'kidlaganidek, she'riyatning quadrati shu qadarki, kitobxonni bir vaqtning o'zida ham yig'latib, ham kuldira oladi. So'zning ilohiyligi, quadrati ham ana shunda. Ammo so'zlash va so'z aytishning o'rtasida uzoq masofa bor. So'zlash deyarli barcha uchun nasib etgan bo'lsa ham, ammo so'z aytish har kimga ham ato etilavermaydi. Erkin Vohidov she'riyatining o'zbek kitobxoni dilidan chuqur o'rin topganligining o'z sabablari bor. Bu ham bo'lsa shoir so'z quadratini, martabasini his etgan holda, uning yelkasiga faqat ezgulik sari xizmat etish vazifasini yuklaganligida, so'z kuchini bir guruh insonlar manfaati yo'lida emas, bashariyat foydasi yo'lida sarf etganida.

Shoir ijodining o'zbek adabiyoti rivojiga ta'siri salmoqli. Bir paytlar to'satdan qo'limga tushib qolgan "Yoshlik devoni"ni mutolaa qilganim holda, mumtoz an'analarimiz qanotida parvoz etayotgan yangi o'zbek g'azaliyotiga maftun bo'lib qolganim hamon yodimda. Devondagi ishq va oshiqlik, g'am va shodumonlik, yor va may, xullas, hayot ne'matlarini tarannum etuvchi, mazmunan ham shaklan go'zal va yangicha ruhdagi g'azallar har bir adabiyot ixlosmandinining xayolini bandi etib qo'yishi shubhasiz:

*Zahmati ishq dard erursa,
Zahmati she'rdur davo,
Chunki og'uning shifosi,
Deydilar og'u bilan.*

¹ Erkin Vohidov. Shoir-u she'r-u shuur.-Toshkent, Yosh gvardiya, 1987.

Uning g‘azallaridagi teran mazmun, quyma ma’no, ravon shakl o‘quvchini ham, tinglovchini ham beixtiyor sehrlab qo‘yadi. She’rlaridagi o‘ziga xos rangin til, jilokor tashbehlar zanjiri tug‘ma iste’dod sohibining yetuk mahoratidan darak berib turadi. Erkin Vohidovning yana bir yutug‘i, she’rlarida so‘zlarning turfa ma’nolaridan, shakldoshlaridan, sinonimlari, antonomik xususiyatlaridan juda ustalik bilan foydalanganligidadir. Yuqoridagi to‘rtlikda ham “dard”, “davo”, “og‘u”, “shifo” kabi so‘zlardan ajoyib shaklda foydalaniб, go‘zal ifoda yarata olgan.

Ko‘plab mashhur so‘z sohiblarining ilk ijodlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, tasviriy ifodalarda qandaydir “cheklanganlik”, tabiat va hayot omuxtaligida qandaydir mavhumlik, hayotni bola nigohi bilan, ko‘proq rangin va quvonch-u shodliklarga cho‘mgan holda tasvirlash holatlari sezilib turadi. Ozod Sharafiddinov ta’biri bilan aytganda, bu “bolalik kasali” ko‘plab ijodkorlarni chetlab o‘tmagan. Lekin Erkin Vohidovning dastlabki ijod namunalaridayoq hayot ma’nosи-yu she’riyat mazmun-mohiyatini ancha keng anglash, adabiyotga yangicha qarash, har bir hodisa mohiyatini chuqurroq mulohaza qilishga intilishni ko‘rish qiyin emas. Go‘yoki adabiyotga yosh bir shoir emas, katta hayot va ijod tajribasiga ega, yolg‘iz boshiga ulkan yuk ko‘targan bir ijodkor kelib qolganday edi:

*Yo ‘q, halovat istamayman,
Orom bilmas yosh jonim.
To ‘lqin urgan ummoncha bor
Yurakdagi tug‘yonim.*

*Har mushkulga bardosh berar,
Chidar mening tosh boshim.
Ammo sokin, tinch yashashga
Sira yo ‘qdir bardoshim.*

O‘tgan asrning o‘rtalaridagi adabiy jarayonda ro‘y bergan ulkan o‘zgarishlar, yangilanishlar davrida adabiyotimizni, uning eng muhim badiiy vositalarini, milliy ruhini saqlab qolish, himoya etishning birdan-bir yo‘li mumtoz adabiyotimizda ming yillardan beri qo‘llanib kelayotgan aruzni davom ettirish edi. Bu vazifani, ayniqsa, Erkin Vohidov juda yaxshi his qildi va unga yangi hayot berdi. Bu albatta shoirning adabiyotimiz oldidagi ulkan xizmatlaridan biridir.

Erkin Vohidov o‘z she’rlarida turli uslub va usullar, maqol va majozlar, xalq orasida mashhur obrazlardan ustalik bilan foydalangan. She’rlarida “kosa tagida nim kosa” gaplar, qochirim va ishoralar ko‘plab uchraydi.

Erkin Vohidov ijodida hozirgi jahon she'riyatida munosib o'rinni egallay oladigan asarlar ko'plab topiladi. Afsuski, ularni o'rganish, she'rlarning poetik jozibasi, gumanistik mohiyatini xalqaro miqyosda manaman deb baholanayotgan she'riyat namunalari bilan qiyosan tahlil etish tajribasi va tamoyili bizda hanuzgacha oqsamoqda.

ham Erkin Vohidov g'azallarida Navoiy an'analarini bilan bog'liq umumiy tasvirlar, uyg'un o'xshatishlarni anchagina uchratish mumkin. Bu mushtaraklik ikki badiiy did sohibining tafakkur uyg'unligidan, so'z latofatini namoyon eta olish qobiliyati bilan bog'liqligini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Erkin Vohidov g'azallarida talmeh san'ati vositasida bir necha marta "Xamsa" qahramonlariga ishora qilib o'tadi. Yoki Navoiy g'azallarida uchraydigan tasavvufiy istilohlarni ham tasvirga ajoyib tarzda tatbiq etadi:

*Topindim yor-sanamga men
Muhabbat sajdagohida.
Biling, dinsizlar osiymas,
Muhabbatsizlar osiydir.*

Alisher Navoiy she'riyatining ta'siri sezilib turgan go'zal tashbehlarni o'qib, Erkin Vohidovning naqadar noyob iste'dod sohibi bo'lganligiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz. «Yoshlik» devonini o'qir ekansiz, shoir qalbidan sizib chiqayotgan ma'sum tuyg'ular go'yo sirli, sehrli so'zlarga aylanadi. Shoir ukparday mayin bu so'zlarni to'zg'itib o'ynaydi-yu, ulardan go'zal, o'ynoqi ohanglar yaratadi, so'ngra esa ular asta o'rni-o'rniga tushadi, xuddi dastgohdan chiqayotganday, quyma, betakror satrlar paydo bo'layotganday taassurot qoldiradi kishida", – degan edi O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov. Chindan ham g'azallar an'anaviy aruzda yozilgan lekin ularni o'qishda, tushunishda muhimi his qilishda aslo qiynalmaysiz.

Xulosa o'rnida aytish joizki, Erkin Vohidov yuqorida keltirilgani kabi serqirra ijodkor, ko'p yillar davomida yosh ijodkorlar uchun she'rlari va dramalari va, umuman, qoldirgan adabiy-badiiy asarlarlari ijod maktabi sifatida qadrlanishiga ishonamiz

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Vohidov E. Shoiru, she'ru, Shuur. – T.: Yosh gvardiya, 1987.*
2. *Erkin Vohidov. Yoshlik devoni. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot nashriyoti, 1969.*
3. *Inog'omov R. Shoirlik qismati, – T.: Universitet, 1999*
4. *Erkin Vohidov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2018.*